

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasini tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayev</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA O'QUVCHILAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS THROUGH FOLK PEDAGOGY**

**Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan bo'lib, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy faol qilib tarbiyalashda ularning nechog'lik o'rni buyukligi haqida fikr yuritilgan.

Xalq pedagogikasiga oid materiallarni bemalol ummonga qiyoslash mumkin. Biz bu tadqiqotni faqat muqaddima deb bildik va uning mana shu ummondan olingan ba'zi sahifalari bilan tomchilab, xalqimizni tanishtirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ko'p jildlar va uzoq yillar uchun mo'ljallangan — o'zbek xalq pedagogikasi katta kuch va jamoaviy mehnatni talab qiladi" maqolada shular haqida yoritilgan.

**Аннотация**

В статье выделены педагогические и психологические особенности повышения социальной активности учащихся средствами народной педагогики, а также обсуждается значение их роли в воспитании студенческой молодежи как социально активной.

Материалы, связанные с народной педагогией, легко сравнить с океаном. Мы считали это исследование лишь прелюдией и ставили перед собой цель познакомиться с ним наших людей с помощью некоторых его страниц, взятых из этого океана. Рассчитанная на многие тома и долгие годы, узбекская народная педагогика требует больших усилий и коллективной работы.

**Abstract**

In the article, the pedagogical and psychological features of increasing the social activity of students by means of folk pedagogy are highlighted, and the importance of their role in educating young students to become socially active is discussed.

Materials related to folk pedagogy can easily be compared to the ocean. We considered this study to be only a prelude and we set ourselves the goal of introducing our people to it with some of its pages taken from this ocean. Designed for many volumes and long years — Uzbek folk pedagogy requires a lot of effort and team work.

**Kalit so'zlar:** milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlar, qadriyatlar, ma'naviy me'ros, madaniyat, sharqona milliy tarbiya.

**Ключевые слова:** национальные обычаи, традиции, обычаи, обряды, ценности, духовное наследие, культура, восточное национальное образование.

**Key words:** national customs, traditions, customs, ceremonies, values, spiritual heritage, culture, oriental national education.

**KIRISH**

Jahonda globallashtirish jarayonlari jadallashib borayotgan davrda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor va ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi bugungi axborot asrining ahamiyatli masalalaridan biri bo'lib bormoqda. Axborot davri yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazish usuliga aylanib, yoshlarga tarbiya berish jarayonlarini to'g'ri tashkil etishni talab qilmoqda. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va rag'batlantirish, ijtimoiylashtirish jarayonlarini yo'lga qo'yish tizimini yangilash, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, ijod tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yaratish hamda takomillashtirish, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash, targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlashda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini keng joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Dunyo ilmiy markazlari tadqiqot faoliyatining o'quvchilarning faollik masalalari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xalq pedagogikasidan foydalanib o'quvchilarda ijtimoiy faollikni o'z - o'zidan yuzaga kelmasligi, balki muntazam ravishda maqsadli olib boriladigan faoliyat natijasida

rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy faolligiga qo'yilgan zamonaviy talablar bilan birgalikda xalq pedagogikasi asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud faollik kompetensiyalari o'rtasidagi aloqadorlik mamlakat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos ravishda olib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, shijoatli, tashabbuskor yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirishda xalq pedagogikasi namunalaridan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirish", "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkori" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renensans"[1] g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etishga alohida urg'u berishini hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish"[2] kabi vazifalar belgilab berilgan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi. Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasida, milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'layotgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odoblilik qilib tarbiyalash bilan bevosita bog'liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

Axborotlashgan jamiyatda tarbiyaning eng muhim vazifalardan biri har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdir. Bu vazifani samarali amalga oshirish tizimini qayta qurish, ijtimoiy faol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bu vazifani samarali amalga oshirish mexanizmini qayta qurish, ijtimoiy faol shaxs xususiyatlari va sifatleri tarkib toptiriladigan vosita, shakl, uslublarni izlab topish kerak. Buning uchun esa "ijtimoiy faollik" tushunchasi mohiyatini chuqur tushunish, nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish muhim masaladir.

"Xalq pedagogikasi namunalari ko'p yillik ilmiy-pedagogik izlanishlar, amaliy faoliyatlar natijasida xalq va ilmiy-ommabop tilda yozilgan. Oila va odamlarning kundalik hayotidan turli misollar, xalqning hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari va ibratli tajribalari: dostonlar, ertaklar, asarlar, marosim qo'shiqlari, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqollar, hikmatlar, aforizmlar, topishmoqlar, bolalar o'yinlari, alla, to'y va motam qo'shiqlari, maqollar, mehri qo'shiqlar, erkalashlar, latifalar, hazillar, taklifnomalar, taqiqlar, sanalar, o'yin-kulgiga oid qo'shiqlar, o'lan, termalar, bolalar qo'shiqlari, ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduz, teginish, "Navro'z", "Mehrjon", bahor, kuz, qish, yoz qo'shiqlari, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandlikka oid nasriy va she'riyat. U inson, tabiat va hayvonot olami namunalari hamda mifologik fantaziyalarni aks ettiruvchi asarlardan iborat. Mazkur tadqiqot ishining nazariy tahlilida "Qur'oni Karim", hadislar va Sharq mutafakkirlarining axloqqa oid qarashlaridan parchalar ham keltirilgan. Xalq pedagogikasiga oid materiallarni bema'lol ummonga qiyoslash mumkin. Biz bu tadqiqotni faqat muqaddima deb bildik va uning mana shu ummondan olingan ba'zi sahifalari bilan tomchilab, xalqimizni tanishtirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ko'p jildlar va uzoq yillar uchun mo'ljallangan — o'zbek xalq pedagogikasi katta kuch va jamoaviy mehnatni talab qiladi".

Xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, xalqning o'ziga xosligining milliy to'ylarimiz, ommaviy bayram sayllari, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi, xalq sporti, jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni, milliy maktab masalalari juda dolzarb, zarur va kerakligi haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim hisobladik. Xalq pedagogikasi an'analari muhim o'rin tutuvchi inson odobi, ta'lim-tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynovchi, xalqning asrlar bo'yi o'z orzu-umidlari, dard-alamlari, quvonch-shodliklari, g'am-g'ussalariyu armonlari, yaxshi kunlar orzulari, mustaqillik axloqiy qarashlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlari aks etgan folklor namunalari tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlardan insonlar yosh va jismoniy, aqliy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini tushunganlar. Bu haqiqat alohida isbotlarni talab etmagan: yosh ulg'ayishi bilan donishmandlik shakllanadi, tajriba to'planadi, bilimlar ortadi. Har bir yosh davrida jismoniy, psixologik, ijtimoiy rivojlanishning o'z darajasi mos keladi.

#### NATRIJA VA MUHOKAMA

Xalq pedagogikasi qator janrlarni o'z ichiga oladi va ular o'quvchining ijtimoiy faolligini

oshirishda muayyan pedagogik-psixologik xususiyatlarni namoyon etadi.

**1. Dostonlar va ertaklar.** Epik ijod namunasi bo'lgan qahramonlik, xalq dostonlari qatorida tarixiy dostonlarda muhabbat va sadoqat, o'zlikni anglash, or-nomus, burch tuyg'usi, e'tiqod, inson va hayvonot olami, qiyinchilik va qiyin vaziyatlarni mardonavor yengib o'tish kabi fazilatlardan qat'iyat, iroda va kuch ruhi ertak va dostonlar topishmoq, matal, xalq og'zaki ijodi qo'shiqlari kabi janrlarda jamlangan bo'lib, ular yanada mukammal va ta'sirli pedagogik fikrni beradi. Ertak va dostonlarda bola tarbiyasining barcha tarkibiy qismlari, jumladan, aqliy va jismoniy kamolot, ilm-fan va hunarga mehr, mehnatsevarlik, ma'naviy xislatlar va nafosatli didni rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab pedagogik-psixologik masalalar qamrab olingan.

Psixologlarning fikriga ko'ra, inson nimani idrok qilsa, u rasm va fonda idrok etadi. Shaki — bu aniq anglash mumkin bo'lgan, ajratish, ko'rish, eshitish va his qilish mumkin bo'lgan narsa. Orqa fon esa ma'lum bir ob'yektni farqlashga yordam beradigan ancha noaniq, umumiy narsadir. *Masalan*, o'quvchi butun bir ertakni o'qish jarayonida, ertak personajlari orasidan asosiy qahramonlarni ajrata olishi, ertak voqealarini o'zaro ketma-ketligini bog'lay olishi, o'qib tushunish bilan birga uni qayta hikoya qilib berish ko'nikmasi rivojlanadi.

Ertakning psixologik jihatdan o'quvchining sezgi jarayonlariga ta'sir ko'rsatib, analiz va sintez qilish qobiliyatini rivojlantiradi. *Masalan*, "Egri va To'g'ri" ertagida Egri personajidagi ayrim salbiy xususiyatlarni o'qish asosida, ko'z oldida yomon qahramonni gavdalantiradi. To'g'ri obrazidagi ijobiy fazilatlarni umumlashtirgan holda, yaxshi qahramon obrazini yaratadi va o'zida bu ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchi jamiyatdagi kishilar bilan ijtimoiy munosabatlar o'rnatish orqali xalq ertak va dostonlarida aks ettirilgan turmush tarzini o'rganadi, tahlil qiladi va o'z faoliyatiga singdiradi.

**2. Qo'shiq** — lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari; "Yor-yorlar"; "Allalar", yig'i-yo'qlovlar; sog'im, o'lim, yanchiq, bayram-sayllar qo'shiqlari; tarbiyalanuvchilar folklorlari namunalari va boshqalardan iborat bo'lib, ular go'zallik, samimiyat, mehr-shavqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa kabi tuyg'ularini his etish orqali kishilarda chuqur insoniy tuyg'ularini o'stiradi. Insonlarda hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

Bu borada, rus psixologi A.R.Luriya aytgandek: "... interoretseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatlari esa keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi" — deydi.

**3. Maqol, matal, hikmat, aforistik iboralar** – bular xalq donishmandchiligining yuksak badiiy timsoli bo'lib, ular qisqa, sodda ammo, har birining ma'nolari juda keng bo'ladi. Maqollar-odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi hamda tarbiyalanuvchi tarbiyasida axloq va odobiga ijodiy ta'sir etishda samarali ta'sir ko'rsatishga qodir. Maqollar asosida o'quvchi taqqoslash, qiyoslash, analiz va sintez, umumiyashtirish, aniqlashtirish kabi tafakkur jarayonlarini amalga oshiradi. O'quvchi maqoldan foydalanish uchun albatta uni analiz va sintez qila olishi kerak, ya'ni nima va qanday maqsadda foydalanishiga qarab maqollarni to'g'ri va o'rnida qo'llay olishi lozim. O'quvchi tomonidan maqollarni tushunishi uchun uni real olamdagi narsa va hodisalarga bo'g'lashi hamda taqqoslashi muhim sanaladi.

O'zbek xalq maqollari shunday mohirlik bilan tuzilganki, o'quvchi uni anglay olishi uchun, uning tarkibiy elementlari, qismlari va tarkibiy belgilarini umumlashtira olishi lozim. Bu esa o'quvchida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**4. Asotir, afsona va rivoyat** – bular donolar donoligi, ibratli, tabiatni asrab-avaylash, qadriga yetish, saqlash, chiroyiga-chiroy qo'shishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish, ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish va kamol toptirishda muhim rol o'ynaydi.

Psixologlar ta'kidlaganlaridek, yosh davrlaridagi bolalar o'z diqqatlarini 7-10 daqiqadan ortiq bir predmetda saqlay olmasliklarini ta'kidlaydilar. Bundan ortiq vaqtda bolalar chalg'iy boshlaydilar, o'z diqqatlarini boshqa predmetlarga ko'chiradilar, shuning uchun mashg'ulotlar vaqtida afsonalarning turlarini tez-tez o'zgartirish zarur.

Asotirlarda keltirilgan voqea-hodisalar, narsa-predmetlar real hayotdan yiroqligi, bo'rttirish orqali aks ettirilganligi uchun o'quvchilar tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarda tasavvurni shakllantirish hamda ijtimoiy hayotda faol foydalana olishi uchun albatta,

afsona, asotir va miflardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**5. Tez aytish** – tarbiyalanuvchining nutqini o‘stirishda muhim o‘rin tutadi. Tez aytishlar orqali tarbiyalanuvchilar gapdagi so‘zlar ma‘nosini tez anglab olish, urg‘ularni to‘g‘ri o‘z o‘rnida ishlata olish, nutqni to‘g‘ri va burro talaffuz qila olish malakalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uzun quloq”, “To‘p-to‘p ko‘k koptok, har to‘p ko‘k koptok va bittadan katta koptok”, “G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi”, “Olim Olimadan olma oldimi, Olima Olimdan olma oldimi?” va hokazo.

**6. Topishmoq** – qadimdan davom etib kelayotgan va xalqlar orasida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning topqirligini tarbiyalashda, zehni o‘tkirlashtirishda, fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq tarbiyalanuvchilar o‘rtasida mustaqil fikrlash yo‘li bilan, savol-javob, tortishuvlar, baxslar orqali olib boriladi. Ular tarbiyalanuvchilarni ko‘proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi.

*Masalan*, “Ikki ajib qulog‘i bor,  
Biri tinglar, biri so‘zlar,  
Bir otasi, bir onasi,  
Necha yuz ming bolasi” va hokazo.

Demak, xalq pedagogikasi yordamida biz nafaqat o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishimiz, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlariga ta‘sir etish orqali xalq pedagogikasidan faol foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni oshirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayon muayyan pedagogik-psixologik xususiyatga egaligini keltirib o‘tamiz:

- o‘quvchilarning ijtimoiy faolliklari ta‘lim-tarbiya jarayonida tarkib topib, ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvlarining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi;
- o‘quvchilarning ijtimoiy faolliklari jamiyatdagi axloqiy talablarga rioya qilish asosida tashkil etilayotgan faoliyat darajasi sifatida ularning kamol topishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;
- o‘quvchilarning ijtimoiy faolliklari ular mansub bo‘lgan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo‘lib, milliy g‘oyaning mazmun mohiyati, yo‘nalishlari hamda qamroviga bog‘liq;
- o‘quvchi ijtimoiy faolliklarini oshirish obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga bog‘liq tarzda muayyan pedagogik jarayonda amalga oshadi;
- o‘quvchi ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyoti istiqbolini belgilash imkonini beradi.

#### XULOSA

Yuqorida keltirilgan pedagogik-psixologik tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish ko‘pqirrali, murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish pedagogik-psixologik bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini, tashkiliy-texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirilishini taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Axloq-odobga oid hadis namunalari». – Toshkent: Fan, 1990, – 72 b.
2. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.
3. Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta‘limiy qarashlar». –Toshkent: O‘qituvchi 1992, – 28 b.
5. Kaykavus. «Qobusnoma». – Toshkent: O‘qituvchi 1986, – 118 b.
6. Musurmonova O. «Oila ma‘naviyat-milliy g‘urur». – Toshkent: O‘qituvchi. 1999, – 200 b.
7. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O‘qituvchi, 1994, – 112 b.
8. Ochilova M. Ochilova N. «O‘qituvchi odobi». – Toshkent: O‘qituvchi, 1993\7. – 136 b.
9. Ochilova M. «Axloqiy tarbiya». – Toshkent: O‘qituvchi, 1979, – 232 b.